
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, linguaculturology have beeen formed. The state is analyzed in the text the pragmatic aspect of figurative language. The concept of a speech act was classified within the framework of a sentence.

Резюме. Формирование новых научных парадигм в мировом языкознании выдвинуло на первый план необходимость изучения вопросов, связанных с мышлением и речевой деятельностью человека. Особое внимание уделяется процессу взаимодействия людей в общественной жизни, т.е. прагматическому изучению единиц речи, порождающих коммуникацию. В качестве новшества в растущей области науки речевой феномен языковых единиц начал изучать их речевую ситуацию, контекстуальные проблемы. В статье анализируется прагматический аспект образного языка в художественном тексте. Понятие речевого акта классифицировалось в рамках предложения.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LINGVISTIK TALQINDA LEKSIK MA'NO O'ZGARUVI BADIIY NUTQNING DARAJA VOSITASI SIFATIDA

Abdullayev Davronbek,
Qoraqalpoq davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'lumki, har qanday frazeologik birlik grammatik me'yorni izchil ta'minlashga xizmat qiladi, uning asosida shakllangan leksik ma'no bayondagi ifoda va tasvir bo'shliqlarini to'ldiradi, biroq ibora inson tomonidan anglangan voqelik qirralarini to'liq tasavvur qilishga imkoniyat yarata olmaydi, balki predmet, borliq, xususiyat, vaziyat va holatga xos ma'no tarmog'ini ifodalanish bilan cheklanadi. Mohiyatan kontsept va tushuncha ham ma'no, ham ong hosilasi sanaladi, unda anglash va idrok qorishib ketadi. Inson tana a'zolari bilan bog'liq somatik frazemalar ma'rifati tafakkur ehtiyoji va cheklangan til lug'aviy zaxirasining to'qnashuvidan shakllanadi. Ba'zi hollarda frazema lug'aviy muqobil shakliga ega bo'lsa ham, uslubiy munosabat ifodasida o'zaro farqlanadi. Frazeologiya, umuman, barqaror birliklar (maqol, matal, aforizmlar ham) – tilning tengsiz, muqobilsiz xazinasi hisoblanadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» asarining «Leksikologiya va semasiologiya» qismida «bosh» so'zining asl ma'nosi gavdaning bo'yindan yuqori qismi, ammo u turli xil so'z birikmalarida turli ma'noni ifodalaydi: yo'lning boshi, ish boshi, bosh vazifa. Bu so'z frazeologik birliklar tarkibida ham keladi: bosh ko'tarmoq – qo'zg'almoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq – rahbarlik qilmoq; bosh egmoq – bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq»[1], – deya ta'kidlangan.

Ularda xalq dunyoqarashi, tarixi, madaniyati, ma'naviyati va maishiy turmush tarzining o'ziga xosliklari namoyon bo'ladi. Aslini olganda, frazeologik birikma sof milliy-mental xarakterga ega, biroq tillararo hamkorlik baynalmilal ifoda madaniyatini shakllantirishini inkor qilib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, agar ingliz tili fraza fondida frantsuz, nemis va italyan millatlari lug'at fondiga xos frazeologik birliklar uchrasa, o'zbek iboralari fondida fors-tojik va arab mentalitetiga aloqador iboralarga duch kelish tabiiy holdir. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar, aynan, ifoda madaniyati til sathining oliy shakllaridan biri bo'lib, ularda nutq malakasi va obraz yaratish qayta namoyon bo'ladi. Demak, millatning milliy-mental o'ziga xosliklari, millatimizga xos turg'unlashgan axloq normalari, qadriyatlari, xalqimizning

[1] Фахри Камол. Лексикология ва семасиология // Ҳозирги узбек адабий тили. Икки томлик. 1-том. Фонетика, лексикология, морфология. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.116.

milliy tafakkuri bilan aloqador tomonlari o‘zbek tilining lingvomadaniy birligi sanaluvchi frazeologik birikmalarda ham yorqin aks etadi. Ana shunday purma’no iboralardan biri “belida belbog‘i bor” FBsidir. Qizig‘i shuki, bu frazeologik birikma “O‘IFL”da ham, Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovlarning “Qayroqi so‘zlar (xalq iboralari)”[1] da ham uchramadi. Ostida millatimizning o‘zligini aks ettirgan bu kabi iboralar lug‘atlardan, albatta, o‘rin olishi shart.

Bu ibora predmetli kodga asoslanuvchi frazeologik birikma bo‘lib, “belbog‘” so‘zi qatnashgan iboralarning katta ko‘pchiligida voqelikka milliy munosabat hamda milliy ruhiyat uyg‘undir. Yangi davr lingvistikasida bu kabi birliklarni lingvomadaniy kodlar asosida o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda[2]. “Lingvokulturologiya terminlarining izohli lug‘ati”da “predmetli kod – atrofdagi predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog‘liq kodlar” tarzida izohlangan. Shundan kelib chiqilsa, “belbog‘” so‘zi milliy xoslanganligi va bo‘yoqdorligi bilan xarakterlanadi, uning ko‘chma ma’nosi lingvomadaniy kodga aylanishida asos bo‘lgan. Natijada “belida belbog‘i bor” iborasi mard, haqiqiy erkak, lafzi halol yigit ma’nosini ifodalay boshlagan.

Nutqda namoyon so‘z birikmalari intizomida grammatik qoida murakkab birikuv tizimiga ega iboralar, garchand, mushohada mantig‘i nazoratiga tayansa-da, yaxlit birliklar sanaladi, ayni paytda, frazeologik konstrukt u yoki bu qirrani oydinlashtiradi yohud yaratilmaydi, balki nutqda yaxlit tarzda voqe bo‘ladi. Xususan, «tilga kirmoq» iborasi, yosh xususiyatiga dahldor ravishda matnda real salmoq kasb etasa (go‘dakning tilga kirishi fiziologik jarayon; kam gap insonlarga nisbat berilganda, iboraning ma’no ifodasi kengayadi), «me’dasiga tegmoq», «ko‘ngli aynidi» iboralarida nimaga nisbatlanishiga ko‘ra farqlanadi (ovqat yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo‘ymoq; ovqatdan boshqa narsa – harakat-holatdan bezmoq kabi). Solishtiring: «Paxta yig‘imi davrida makaron va mosh talabalarning me’dasiga tegadi-da, o‘rtoq. // O‘n-o‘n besh kundan beri bir xil ish, bu rosa me’daga tegdi-da, endi cho‘ponlikka bo‘lsa ham, boshqa ishga o‘taylik. Shunday ekan, ibora tarkibidagi lug‘aviy birliklararo munosabat frazema tabiatini belgilaydi va har qanday frazeologik birlik komponentlarini ijodiy birikuv qonuniyatlari grammatik me’yor talabidan chetga chiqmaydi. Ba’zi olimlar «frazeologizm» istilohini so‘z birikmalari tasavvuri bilan bog‘lashadi[3].

Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologik birlik grammatik jihatdan so‘z birikmasidan katta bo‘lmasligini qayd etadi. Bu holat frazema tabiatini frazeologik birlik, frazeologik shakl sifatida ajratishga olib keladi. Bizning fikrimizcha, mazkur ajratish nazariy chalkashliklarga olib keladi. Negaki, ifoda madaniyati bo‘lagi – frazeologiya semantik, morfologik-sintaktik va uslubiy farqlanishga ega tushuncha bo‘lib, unda ibora doimiy o‘zgarmas mazmun kasb etadi. Binobarin, barqaror so‘z birikmalari sintaktik qatori tildagi ichki hamda tashqi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

Shamollarning qulog‘iga quyib qo‘ysaydim
Har bir bino peshtoqiga o‘yib qo‘ysaydim.
(M.Jalil. Saylanma. 148).

Qulog‘iga quyib qo‘ymoq – gap uqdirmoq. Odatda, ushbu ibora qayta-qayta ta’kidlamoq, mushohadani ongga singdirish bilan bog‘liq jarayonga nisbatan qo‘llaniladi. Unda shakl va mazmun birligi timsoliy munosabat hosil qiladi, barqaror konstruktsiya esa mohiyat uzluksizligini ta’minlaydi.

Tilning boshqa birliklari singari ibora yoki frazeologik birikma ham vazifaviy uslublarda qo‘llanilishiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. O‘zbek tilida frazeologizmlarning asosiy qismi so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanishga xoslangan. Bu muammo tahliliga B.O‘rinboyev va uning shogirdlari alohida e’tibor berib kelmoqdalar.

Bunday ko‘p ma’noli iboralarning aksar qismi fe’l so‘z turkumiga to‘g‘ri keladi, 156 ko‘p ma’noli frazemadan 142 tasi fe’l-ibora bo‘lsa, 8 tasi ravish-ibora, 4 tasi sifat-ibora, faqat ikkitasi ot-ibora ekanligi kuzatishlarda ma’lum bo‘ldi. Frazani shakllantirish jarayonida inson omili muhim o‘rin tutadi. Negaki, jamiyat, tabiat va koinot munosabatlari bevosita va bilvosita inson faoliyati – aloqasi bilan bog‘liq. Shaxs manfaat va qiziqishlari, talab va ehtiyojlari dunyoni anglashga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ munosabatda somatik ifoda shakllanadi. Aslida til antropomorfizmi tafakkur madaniyatini shakllantiradi. O‘z navbatida, tafakkur daniyati milliy o‘lchamining til nominatsiyasini hosil qiladi.

Tilshunos olima A.Boboyeva gardaniga olmoq, gardaniga ortmoq, gardaniga yuklamoq, gardaniga tushmoq, bo‘yniga olmoq, bo‘yniga tushmoq, bo‘yniga ortmoq, bo‘yniga yuklamoq, ustiga olmoq, yelkasiga olmoq kabi gardan, bo‘yin, ust va yelka so‘zlari yordamida shakllangan iboralarni “zimmasiga olmoq” iborasining xalq nutqida qadimdan qo‘llanilib kelgan variantlari deb hisoblaydi[4]. Olima o‘sha davr matbuot tili materiallarini o‘rganib, “zimmasiga olmoq” iborasining boshqa variantlardan qo‘llanish darajasiga ko‘ra ancha yuqori ekanligini aniqlagan. Buning

[1] Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар (халқ иборалари). – Тошкент: Ўз.МЭ, 2011. – Б.224.

[2] Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – Б.30.

[3] Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М, 1972.

[4] Бобоева А. Газета *зиммасига олмоқ* иборасининг вариантлари // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1978, 2-сон, 56-58-бетлар.

sababini u quyidagicha izohlashga intiladi: “asli arab tilidan yozma nutq orqali o‘zlashgan “zimma” so‘zi bilan shakllangan variantlarning hozirgi ona tilimizga, xususan gazeta tiliga juda singib ketib, qo‘llanish darajasi jihatidan ustun chiqishining boisi, dastlab, u so‘z (zimma)ning umumiy salmog‘i, undan anglashilgan serqirra ma’no xususiyati bilan xarakterlanadi. Chunki genetikasi jihatidan arab tiliga mansub zimma so‘zining ma’nosi gardan, bo‘yin, ust va yelka so‘zlarining ma’nosidan ancha keng, serqirra va umumiy”ligi bilan belgilanadi[1].

O‘TFLda sakkizta (dodini bermoq, jon kirdi - jon kirgizmoq // jon kiritmoq, ishga solmoq, yo‘lga solmoq, ko‘z qismoq, ko‘ngliga tugmoq, o‘ziga kelmoq, qo‘lga olmoq) to‘rt ma’noli polisemantik ibora izohlangan.Nafaqat frazeologik birliklar, balki tildagi barcha lisoniy birliklar antropotsentrik nuqtai nazardan tahlilga tortilsagina kerakli natijaga erishiladi. Shu jihatdan iboralar tizimi ham har bir xalqning milliy boyligi, o‘zida katta ma’naviy boylik, xalqning yo‘qotishi mumkin bo‘lmagan qadriyatlarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan nomoddiy mulkidir.

O‘zbek tilidagi ko‘p ma’noli iboralar tizimini antropotsentrik paradigma doirasida o‘rganishda ularnin lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik jihatlariga ham e’tibor qaratishni, shuningdek, iboralar mustaqil so‘zlarning obrazli turg‘un birikuvi bo‘lishidan tashqari milliy mentallik, etnomadaniy, etnosotsiologik, kognitiv, krayetiv, akkumulyativ, aksiologik, estetik, emotiv vazifalarni bajarishini nazardan soqit qilib bo‘lmaydi. Bular ayniqsa, somatik iboralarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Frazema vazifasi davriy madaniyatga xoslangan semantik maydonning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Tilimiz lug‘aviy fondi mavhumligining universal mohiyati ifoda yo‘sinida barqarorlik kasb etadi va ma’no siljishini hosil qiladi. Milliy-madaniy yaxlitlik iboraning tabiatini ochib beradi. Mazmun kengayishining murakkab tizimini anglash aynan odam va olam bog‘liqligini yaxlitlikda tasavvur etish ehtiyojining hosilasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, somatik frazema til madaniyatining oliy bosqichi – nutqiy ifoda bilan bog‘liq. Unda antropologik shakl vosita vazifasini bajaradi hamda semantik talabning ijodiy mantig‘ini belgilaydi. Unda paralingvistik komponentlar substantsiyadan ajralgan holda ijodiy qayta shakllanadi hamda aniqlovchi mohiyat darajasiga ko‘tariladi. Kommunikativ aloqa tasavvur va taassurotlarni bir-biriga ulaydi hamda vazifadoshlik nuqtai nazaridan barqarorlik kasb etadi. Ayni paytda, muammoga semiotik va funktsional yondashuv masalani to‘g‘ri hal qilishning kafolati hisoblanadi. Zero, somatik ifoda ham madaniyat, ham ma’no, ham shaklga dahldor tushuncha sanaladi.

Rezyume. Ushbu maqola o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan ayrim somatik iboralarni lingvistik va mintaqaviy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada iboralarning milliy xususiyatga ega bo‘lishi va til madaniyatining namoyon bo‘lishi haqida fikrlar bildirilgan.

Resume. This article is devoted to the linguocultural analysis of some phrases from the explanatory dictionary of the Uzbek language. In the article, opinions are expressed about the acquisition of national character of expressions and the manifestation of language culture in itself.

Резюме. Данная статья посвящена лингвострановедческому анализу некоторых соматических выражений, включенных в толковый словарь узбекского языка. В статье высказываются мнения о приобретении национального характера выражений и проявлении языковой культуры как таковой.

[1] Бобоева А. Газета *зиммасига олмоқ* иборасининг вариантлари // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1978, 2-сон, 57-58-бетлар.